

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“HISOB VA AUDIT” FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

ABDUAZIZOV BAHROMJON HUSNIDDIN O'G'LI

**“TUGALLANMAGAN ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOB VA
TAHLILI”**

**5230900—“Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)” ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Audit” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. I.N.Qo'ziyev
“ ” _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar: _____ kat.o'q. Meliev I.
“ ” _____ 2015 y.

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA

Kirish	3
I Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilining nazariy asoslari	7
1.1. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari haqida tushuncha, ular hisobining maqsad va vazifalari	7
1.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari.	16
II Bob. Bozor munosabatlari sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning amaliy jihatlari.	23
2.1. Tugallanmagan ishlab chiqarishni shakllanishi va uni baholash usullari.	23
2.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida aks ettirish xususiyatlari.	30
III Bob. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirish tartibi va uni mukammallashtirish masalalari.	39
3.1. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini tashkil etish bosqichlari va natijalarni umumlashtirish xususiyatlari	39
3.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini o'tkazish tartibi.	44
Xulosa	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	63
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. Mustaqillikning ilk yillarida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bugungi kunga kelib o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda yaqindagina 2014 yil yakunlari sarhisob qilinib, 2015 yildagi ustuvor vazifalar Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan to'liq va aniq mazmunda belgilab berildi. Darhaqiqat, yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili, fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes sub'ektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi. 2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'zni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi"¹.

Bu kabi ijobiy natijalarga erishishda jamiyatda mulkdorlar sinfini shakllantirish va ularga keng ko'lamdagi imkoniyatlar yaratib berish muhim ahamiyat kasb etdi. Iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdan buyon o'tgan vaqt davomida respublikamizda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, shu jumladan xarajatlar hisobi va tahlili sohasida ham bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shuningdek, milliy ishlab

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir – T. O'zbekiston. 2015 .

chiqarishni rivojlantirish, shu bilan birga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirish, uning tahlilini tashkil etish vazifalari belgilangan. Shuningdek, korxona ixtiyorida qoladigan mablag'ning ko'payishi, foyda va ishlab chiqarish xarajatlari hajmining oshishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga imkon bermoqda. O'z navbatida, korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini kengayib borishi, ular faoliyatida tugallanmay qolgan ishlab chiqarishning yuzaga kelishiga, bu esa, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri, to'liq va o'z muddatida hisob va hisobotda aks ettirishni talab etadi.

Yuqoridagi fikrlar, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlili borasida hanuzgacha muhim va o'z echimini kutayotgan zaruriy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, bu borada hisob va tahlil tizimida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa, bitiruv malakaviy ishi mavzusining naqadar dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti sifatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi aksionerlik jamiyatlari, MChJlar va ular tugallanmagan ishlab chiqarishiga oid ma'lumotlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlili hamda uni takomillashtirish masalalarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda uni mukammallashtirish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Yuqoridagi maqsadga erishish va bitiruv malakaviy ishi mavzusining mohiyatini ochib berish maqsadida malakaviy ishida quyidagi vazifalarni o'rganishni maqsad qilib olindi:

- Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari haqida tushuncha, ular hisobining maqsad va vazifalarini o'rganish;

- Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining maqsad, vazifalari va ma'lumot manbalarini tadqiq etish;
- Tugallanmagan ishlab chiqarish va uni baholash usullarini o'rganish;
- Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida aks ettirish xususiyatlarini tadqiq etish;
- Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirish xususiyatlarini o'rganish;
- Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini o'tkazish tartibi va uni takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish va uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu vazifalardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonalarida tugallanmagan ishlab chiqarish hisobi va tahlilini chuqur o'rganish, amaliyotga tadbqiq etish hamda takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuning nazariy - amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida tugallanmagan ishlab chiqarish hisobi va tahlili bo'yicha keltirilgan xulosa va takliflardan respublikamiz ishlab chiqarish korxonalarida tugallanmagan ishlab chiqarish hisobi va tahlilini amalga oshirishda foydalanish hamda bitiruv malakaviy ishidagi ko'pgina nazariy qoidalarni o'rta maxsus o'quv yurtlarida «Audit» fanini o'qitish jarayoniga tadbqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning asosiy natijalarini tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilini amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha axborotlarning to'liq, aniq va batafsil aks ettirilishini ta'minlaydi.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, mazmunan bog'langan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat. Xususan, bitiruv malakaviy ishi mavzusining mohiyatini ochib berishda buxgalteriya hisobi va auditga oid O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident asarlari, ilmiy maqolalar, chet el adabiyotlari va internet ma'lumotlaridan

keng foydalanilgan. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishi chizmalar, sxemalar va jadvallar bilan boyitilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida muallif tomonidan bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, maqsad va vazifalari batafsil bayon etilgan.

Ishning I bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilining nazariy asoslari xususida fikr yuritilgan bo'lib, unda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, ahamiyati, mavzuning nazariy-uslubiy jihatlarining mohiyati aniq hamda ravon tilda ochib berilgan.

Malakaviy ishning II bobi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobining amaliy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobining amaliy va uslubiy jihatlar mavzuga oid etakchi mutaxassis-olimlar fikrlari hamda amaliy misollar asosida o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining III bobida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari, tahlilni amalga oshirish tartibini takomillashtirish masalalari talab darajasida bayon etilgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishining natijalari bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan xulosalar qilinib, taklif va tavsiyalar umumlashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar belgilangan talab darajasida keltirib o'tilgan.

I Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlilining nazariy asoslari

1.1. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari haqida tushuncha, ular hisobining maqsad va vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarga o'z faoliyati natijalari uchun to'la iqtisodiy mustaqillik va javobgarlik berilishi nazariy jihatdan o'z xarajatlari va tannarxi bilan samarali boshqarishda korxona manfaatdorligini oshirish uchun sharoitlar yaratish kerak edi. Biroq sobiq sho'rolar tizimidan meros qolgan korxonalar o'rtasidagi an'anaviy xo'jalik aloqalarining uzilishi, narxlarning oshishi, birinchi navbatda, xom ashyo, energiya uzatuvchi va transport xizmatiga baholarning oshishi tannarxining keskin ko'tarilib ketishiga, ishlab chiqarish hajmining kamayishiga, ko'p hollarda esa korxona faoliyatining to'xtab qolishi va ularni tugatishga olib keldi. Sanoatdagi inqiroz shunga olib keldiki, so'ngi o'n yil ichida amalda qo'llanib kelgan xarajatlar bilan boshqarish tizimining foydali elementlari qo'ldan boy berilgandi. Shunday qilib, xarajatlar va tannarx bilan samarali boshqarishga amaliy jihatdan qayta o'rganish vaqti keldi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektda va uning ayrim olingan bulimlarida ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini aks ettiradigan kursatkichlarning umumiy tizimida tannarx kursatkichi asosiy urin tutadi. Chunki, tannarxning tarkibi uni tashkil kiladigan tegishli xarajatlarning yigindisidan iborat. Korxonalarda xarajatlarni boshqarish eng qiyin jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki, u ahamiyati bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatini boshqarish majmuasi deb tushuniladi, vaxolanki ishlab chiqarish jarayonida sodir bulayotgan voqealar va muomalalarni uz ichiga kamrab olgandir.

Xarajatlarni hisobga olish bu tegishli xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati-ta'minot, ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish-iste'molchiga etkazib berish jarayonlarida sodir bo'lgan voqealarni miqdoriy o'lchash (miqdor va qiymat o'lchovida), qayd qilish, guruxlashtirish, tayyor

mahsulotlar tannarxining tarkib topishi chegarasi bo'yicha tahlil qilishga qaratilgan faoliyatdir.

Xarajatlar hisobining nazariyasi va amaliyotida birgina "tannarx" tushunchasigina mavjud emas. Uning mazmuni quyidagi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin: mahsulotning tayyorlik darajasi va uning sotilishiga qarab, yarim tayyor mahsulot, omborda saqlanayotgan mahsulot va sotilgan mahsulot tannarxlari; mahsulot miqdoriga qarab, mahsulot birligining, butun ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi; joriy xarajatlarni kalkulyatsiya ob'ektining tannarxiga kiritish to'liqligiga qarab, to'lik amaldagi tannarx va cheklangan tannarx; tannarxni shakllantirishning tezkorligiga qarab amaldagi yoki me'yoriy, rejali tannarx farqlanadi.²

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflarni rejalashtirish, ularning hisobini yuritish va tahlil qilishga yagona yondashuvni ta'minlash uchun ushbu sarflarning tegishli tasnifi kerak. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishga faoliyat turlari, ishlab chiqarishning hamda ishlab chiqariladigan mahsulotning turi, korxonaning boshqaruv tuzilishi va o'lchamlari ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi qismlar nafaqat o'z tarkibiga ko'ra, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish ahamiyatiga ko'ra ham turlichadir. Ba'zi birlari uni tayyorlash va ishlab chiqarish bilan, boshqalari ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Uchinchi toifasi esa amaldagi qonunchilik bo'yicha sarf-xarajatlarga kiritiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi yuritiladigan yo'nalish-ishlab chiqarish xarajatlarining alohidalangan va maqsadli hisobini talab etuvchi faoliyat sohasidir. Ya'ni, buxgalteriya ma'lumotlarining foydalanuvchilari biror sarf-xarajat haqida nimanidir bilib olmoqchi bo'lsalar, aynan shu narsaning o'zi hisob yo'nalishi bo'ladi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo'nalishiga mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, sotish bo'limi ta'minoti sarflari kalkulyatsiyasi, ya'ni amalda Biron-bir mansabdor shaxsning ishlatilgan zahiralarini baholash zaruratini yuzaga keltiradigan holatlar misol bo'lishi mumkin.

² B.Qudbiev. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish. Bozor, pul va kredit». –T.: 2005y. 16 bet

Hisobot oyi oxirida xarajatlar jamlab-taqsimlash va kalkulyatsiya qilish schyotlaridan “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti debetiga o’tkazilgandan so’ng ularni tayyor mahsulot bilan tugallanmagan ishlab chiqarish o’rtasida taqsimlash zaruriyati tug’iladi.


Rejalashtirish va hisobda yalpi tovar mahsulotlari hamda tugallanmagan ishlab chiqarish tushunchalari mavjud.

Yalpi mahsulot deb, hisobot davrida ishlab chiqarilgan hamma tayyor va yarim tayyor mahsulotlarning pul shaklidagi ifodasiga aytiladi. Shuningdek yalpi mahsulot tarkibiga chetga sotilgan yordamchi ishlab chiqarish sexlarining mahsulotlari va sanoat xarakteridagi bajarilgan ish va xizmatlar hamda korxonaning o’z kapital qurilish va sanoatga taalluqli bo’lmagan ishlab chiqarish hamda xo’jaliklar uchun bajarilgan ishlar ham kiritiladi.

Tovar mahsuloti deyilganda chetga sotish uchun mo’ljallangan tayyor mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning pul shaklidagi ifodasi tushuniladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, texnologik jarayonda ko’zda tutilgan hamma ishlab chiqarish bosqichini o’tmagan, texnika nazorati tomonidan tekshirib qabul qilinmagan buyum va mahsulotlarga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, 100%lik tayyor mahsulot darajasiga kelmagan, tayyor mahsulot tariqasida ko’rilmaydigan, bundan kelib chiqib, xaridorga sotib bo’lmaydigan mahsulot qismiga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini va uni tayyor mahsulot darajasiga qanchalik yaqinligini aniqlash buxgalteriya hisobi uchun juda muhimdir. Bu turdagi ishlab chiqarish tarkibiga qayta ishlash jarayonidan o’tgan xom-ashyo, material va yarim tayyor mahsulotlar o’zi tayyor holga keltirilgan, ammo texnika nazorati bo’limi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlar kiradi(1-chizma).

Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarishda qatnashadigan detal, qism va shu kabilarning harakati hisobini yuritish lozim. Mahsulot ishlab chiqarishning har bir fazasida vaqti-vaqti bilan mavjud tugallanmagan ishlab chiqarishlarni tekshirish, hisob ma’lumotlarini inventarizatsiya ma’lumotlari bilan taqqoslash lozim.



1-chizma. Korxona aktivlari tarkibida tugallanmagan ishlab chiqarishni tutgan o'rni³

³ Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

Tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibiga qayta ishlash jarayonidan o'tgan xom ashyo, material va yarim tayyor mahsulotlar, detal va uzellar, belgilangan sinov shartlaridan o'tmagan mahsulotlar, o'zi tayyor holga keltirilgan, ammo texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlar kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish korxona aylanma aktivlari tarkibiga kirib, uning mazkur aktivlar tarkibida tutgan o'rni yuqoridagi 1-chizmada keltirilgan.

Hisobot oyi davomida ishlab chiqarish xarajatlarini tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha alohida hisobga olib borishning imkoniyati yo'q. Shuning uchun hisobot oyi oxirida jami xarajatlar tugallangan ishlab chiqarish bilan tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlanadi. Buning uchun xarajatlarning umumiy vedomosti tuzilib borilishi va ularni taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Jami ishlab chiqarish xarajatlari summasidan hamma chiqarib tashlashlar va hisobot oyi oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishga to'g'ri keladigan xarajatlar olib tashlanganidan keyin tovar mahsulotiga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdori kelib chiqadi. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini to'g'ri aniqlash va uni to'g'ri baholash korxonada tovar mahsuloti tannarxini to'g'ri aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham korxonalarda vaqti-vaqti bilan tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiya qilinadi.

Inventarizatsiya o'tkazish haqidagi nizomga muvofiq korxonalarda inventarizatsiya bir yilda bir marta yillik hisobot tuzilishidan avval o'tkaziladi. Undan tashqari, ishlab chiqarish xususiyatlari va shart-sharoitlari hisobga olingan holda tegishli vazirlik va boshqarmalar tomonidan belgilangan muddatlarda ham inventarizatsiya o'tkazilishi zarur.

Mamlakatimizda markazlashgan boshqaruv va xalq xo'jaligi bo'g'inlari faoliyatini qat'iy tartibga solish tizimi amal qilayotgan iqtisodiy sharoitda keyingi o'n yilliklar davomida hisob yuritish asosan tashqi hisobot berish vositasi kabi rivojlandi va korxona darajasida qarorlar qabul qilish jarayoniga sezilarli ta'sir o'tkazmadi. Ma'lumki, "korxonalar xo'jalik mustaqilligiga erishgan va yakka faoliyat yuritayotgan, tashqi muhitga moslashish qiyinlashgan sharoitda ro'y

berayotgan jarayonlarni tahlil qilish va ta'sirchan nazoratni amalga oshirish uchun puxta ishlab chiqilgan hisob yuritish usullari hamda uslublari talab etiladi. Shuning uchun turli boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasi sifatida boshqaruv hisobining ahamiyati seeilarli darajada oshmoqda. Korxonada xarajatlar hisobini yuritish tizimi, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonani boshqarish tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu bo'g'inda amaldagi sarf-xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'planadi, demak, ehtimoliy foydani ob'ektiv baholash uchun asos yaratiladi"⁴.

Sarf-xarajatlarni hisoblash zarurati, ularning ishlab chiqarish natijalari bilan tenglashtirish imkoniyati korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va xo'jalik faoliyati iqtisodiy samaradorligini baholash uchun bosh negizdir. Bunday sharoitda ishlab chiqarish natijalariga sarf-xarajatlarni boshqarish tizimining yaratilishi, eng maqbul boshqaruv va moliyaviy karorni ishlab chiqish uchun asos bo'lishi lozim. Shuning uchun sarf-xarajatlar darajasi, tuzilmasi va xususiyatlari tahlili, rentabellik omillarini baholashga ishonchli asos bo'la olmaydi.

Bu borada, ta'kidlash jozki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida mavjud an'anaviy boshqaruv hisobi tizimi samarasizligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi tezkor bo'lmagan axborot tarkibida ko'pincha noto'g'ri ma'lumotlar bo'lib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tannarxni kalkulyatsiyalashning an'anaviy uslublari doirasida qo'llanadigan ustama xarajatlarni tayyor mahsulot turlari bo'yicha taqsimlash usullari faqat tahminiy baholash imkonini beradi. O'z navbatida, boshkaruv qarorlarini qabul qilishda xato ma'lumotlardan foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilishning samarasizligi va noto'g'ri narx siyosati yuritilishiga sabab bo'ladi;

- amalda hisob yuritish jarayonida sarflar odatda umumlashtiriladi, so'ngra kalkulyatsiyalash tizimida mahsulot turlari bo'yicha shartli ravishda taqsimlanadi. Bunda kalkulyatsiyalash hisob-kitoblarning mehnat xarajatlari ko'payadi, tannarx

⁴ Каморджанова Н., Карташова И. Бухгалтерский финансовый учет: Учеб. пос. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2006. – 285 б.

ko'rsatkichlari haqiqatdagidan uzoqlashadi va boshqaruv uchun yaroqsiz holatga keladi.

Hozirgi paytda respublikamizda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizim shakllanmoqda. Bunday sharoitda korxonaning tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvi murakkablashadi, korxonani samarali boshqarish va uning faoliyati bo'yicha maqbul qarorlar qabul qilish uchun ob'ektiv axborotni shakllantirishning ahamiyati kuchayadi. Ushbu sohada tadqiqotlar olib borilishi tannarxni hisoblashning yanada mukammal uslublarini izlash uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari korxonaga tanlangan hisob siyosati doirasida hisob yuritishning maqbul turini qo'llash va uning ko'pgina jihatlarini mustaqil ravishda belgilash imkonini beradi. Shuning uchun boshqaruv hisobi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish uchun qanday ma'lumotlar zarurligiga bog'liq. "Resurslar cheklanganligi, asosiy xom ashyo va energiya manbalari narxlari kun sayin ortib borayotgan sharoitda korxonalar o'z pirovard maqsadiga erishish uchun birinchidan, mahsulotlarni sotish bahosini oshirish, yohud ularning tannarxini tushirishlari lozim. Mahsulotlarni sotish narxlari korxonalar xohish-ishtiyoqiga bevosita bog'liq bo'la olmaydi, zero, ular bozorda, talab va taklif qonuniga asosan o'zgaradi. Xarajatlar esa xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida shakllanib, ularning darajasini nazorat qilish korxona menejmentiga bog'liq bo'ladi. Aynan shu paytda, ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish va ularni boshkarishda zamonaviy usullarni qo'llash ayni muddaodir"⁵.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning hozirgi davrida korxonalarning mavjud resurslaridan yanada samaraliroq foydalanish va buning natijasida dunyo bozoriga raqobatbardosh mahsulot bilan chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda «yuqori sifat, nisbatan pastroq narxda» shiorini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Dunyo bozoridagi raqobat hozirgi kunda shunga olib keldiki, bozor ishtirokchilari o'z mahsulotlarining tannarxidan pastroq narxlarga sotishlariga to'g'ri kelmoqda va bunday holatda pirovard maqsad, foyda

⁵ Karimov A va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: Sharq. 2004. 252 bet

olishga faqatgina mahsulot sifatiga zarar etkazmagan holda xarajatlarni tejash orqali erishiladi. Xarajatlarni tejashga esa, ular sodir bo'ladigan har bir bosqich imkoniyati puxta o'rganilib, ulardagi rezervlarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subektlarga o'z ishlab chiqarish faoliyati va kelajak istiqbolli rivojlanish rejalarini tuzishda va korxonani boshqarishda ham mustaqillik berish, korxonalar hozirgi, kun sayin oshib borayotgan raqobat sharoitida, sifat jihatidan aniq, to'g'ri va albatta asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beruvchi axborot tizimiga ega bo'lishlari zarur. Moliyaviy hisob hozirgi davrda mavjud axborot tizimining asosiy bo'g'ini sifatida barcha pog'onalardagi menejerlarni zaruriy axborot bilan ta'minlamaydi. O'z mohiyati jihatidan ushbu hisob turi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning rivojlanish strategiyasi va faoliyat yurgizish taktikasi uchun zaruriy bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi axborotni to'la miqdorda etkazib bera olmaydi. Bularning barchasi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini rivojlantirishni va uning uslublarini korxonalarni boshqarishda keng ko'lamda qo'llashni taqozo etadi. "Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimining asosiy maqsadi, oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydigan axborot tizimiga ega bo'lishdir"⁶. Ushbu axborot manbalari esa, korxona quyi pog'onasidan boshlab shakllana boshlaydi. Shu o'rinda, shakllanayotgan axborotni guruhlab, birlamchi qayta ishlab, keyingi pog'onaga uzatish hamda boshqaruv samarasini oshirishning tasirchan vositalaridan biri, korxonaning tashkiliy tuzilmasi ichida moliyaviy javobgarlik markazlarini yaratishdir. Javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish firma ichki boshqaruvini ta'minlaydigan korxonaning asosiy tizimlaridan biridir. Javobgarlik markazlarini yaratish tashkilot bo'linmalarini boshqarishning asosi, biznesni samarali boshqarishga yordam beruvchi tub jihatlarni boshqarishning o'zagidir. Korxonani moliyaviy javobgarlik markazlari orqali

⁶ Bobojonov O. Boshqaruv hisobi. Darslik –T.: Moliya. 155-bet

boshqarish - bu biznesni tezkor boshqarmokchi va unga ta'sir etmoqchi bo'lganlar uchun vosita bo'lib, u:

- korxona rivojlanishining yo'nalishi va sur'atlari haqida muntazam tasavvurga ega bo'lish va rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish;
- yakuniy natijaga nima hisobidan erishilganligi, amalda kim bunga harakat qilganligini tushunish;
- korxonaning qaysi bo'g'inlari harakatni sekinlashtirayotganligini bilish;
- kompaniyaning eng samarali joylarini, uning zaifroq qismlarini aniqlash va ularga ta'sir ko'rsatish orqali eng katta samaraga erishish kabi maqsadlarda ishlatiladi.

Mahsulot ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi oshgan sari materiallarni xalq xo'jaligidagi roli oshib borishiga mos holda, ularni tejab-tergab sarflash ustidan nazorat qilishning ahamiyati ham ortib boradi. Ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish va me'yorida amalga oshirish uchun materiallarning zarur turlari bilan o'z vaqtida kerakli miqdorda ta'minlab turish kerak. Shuning uchun korxona moddiy texnika rejasining bajarilishi ustidan nazorat qilib borish va xodimlarni moddiy-texnika ta'minotida ro'y berayotgan kamchiliklar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilib turish materiallar hisobining eng asosiy vazifalardan biridir.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri va aniq yuritish korxona foydasini oshirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga va shu bilan bir qatorda ortiqcha aylanma mablag'larni bekorga sarf qilishni oldini oladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishdan maqsad - tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha hisob axborotlarini foydalanuvchilarga to'g'ri, to'liq, va o'z muddatida etkazib berishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini o'z vaqtida, to'g'ri, to'liq va aniq hisobga olish;
- mahsulot ishlab chiqarishda korxona asosiy va aylanma mablag'lardan unumli foydalanish yo'llarini topish;

- korxonalarda iqtisodiy tejash rejimiga rioya qilishni ta'minlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini tahlil qilish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida aks ettirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini moliyaviy hisobot shakllarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida umumlashtirish va baholash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish birligining tannarxini aniq hisoblab borish va xarajatlarni pasaytirish yo'llarini aniqlash;

Korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va soliqqa tortish hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjat - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» bo'lib hisoblanadi. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning asosiy yo'nalishi bu sub'ektning ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarni boshqarishdir.

1.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va ma'lumot manbalari

Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdo-sotiqda erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun sherik tanlay bilish, o'zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to'liq egalik qilish moliyaviy ko'rsatkichlarining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yoodam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi,

ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bilan korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb muammoga aylanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko'p ukkladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir sharoitda iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Mustaqil mamlakatimiz dastlabki yillardanoq sobiq ittifoq respublikalari singari rejali va markazlashtirilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun qadam qo'ya boshladi. Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'ziga xos va mos bo'lgan bosqichma-bosqich hamda kuchli ijtimoiy muhofaza qilish yo'lini tanladi.

Shu jihatdan olganda, korxonalarning barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil mukammal ishlashi kerak. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o'zgarishlariga mos tarzda qayta qurish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini o'rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan ham, keyingi yillarda respublikamizda boshqaruv va moliyaviy tahlilga e'tibor kuchaygan. Bu esa bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni hamda zamonaviy iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Ushbu holatni hisobga oladigan bo'lsak, korxonalarining moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to'g'ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog'lomlashtirish imkoniyatlariga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi.

Agar ilgari korxonalarining xo'jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug'ullangan bo'lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamoa tashkilotlari, aksionerlar, ta'minlovchilar, iste'molchilar va boshqa organlar va tashkilotlar ham shug'ullanishyapti.

Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinyapti. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarining xo'jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish katta rol o'ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani yechish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu borada hali yechilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlilning o'tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan asoslangan uslub bilan ta'minlangan emaslar. Bu holat, albatta bozor munosabatlarini shakllantirish davrida korxona va tashkilotlarga samarali boshqaruvchilik qilishda salbiy rol o'ynamoqda.

Ma'lumki, ishlab chiqarish faoliyatida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari

yoki tannarxlari pasayadi. Buning natijasida korxonalarning sof foydasi ortadi. Shuning bilan birgalikda, tovar-moddiy zahiralaridan o'rindoshlik bilan foydalanish oqibatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatlari yaxshilanadi, xizmat qilish muddatlari esa ko'payadi. Shu nuqtai-nazardan, ishlab chiqarishning tovar-moddiy zahiralar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish, ayniqsa, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini imkon darajasida kamaytirish va ular asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabellining oshishi, korxonani moddiy resurslar bilan belgilangan assortimenti va sifati bo'yicha ta'minlanishiga bog'liq. Shuning uchun, sanoat korxonalari o'z ishlab chiqarishini bir me'yorda samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida uzoq muddatga mo'ljallangan biznes rejalariga asoslangan holda tovar-moddiy zahiralar bilan ta'minlashga alohida e'tibor beradilar. Chunki hozirgi paytda tovar-moddiy zahiralarini yo'qligi yoki ishlab chiqarishga o'z vaqtida etkazib berilmaganligi, mehnat unumdorligining pastligi kabi sabablar tufayli ishlab chiqarish korxonalarida tugallanmay qolgan mahsulotni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Korxonalarning moddiy resurslar bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorlarda, belgilangan sifatda hamda bir maromda ta'minlanishi shu bilan birgalikda ulardan ratsional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har tamonlama ta'sir etadi. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining oshishi o'z navbatida, moddiy resurslardan foydalanish ko'lamining ham kengayishiga olib keladi. Shuning uchun, moddiy resurslardan tejab tergap foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, tugallanmagan ishlab chiqarish yarim tayyor mahsulotlardan farq qilib, biron bir tsex yoki uchastkada qayta ishlash jarayonini o'tab bo'lmagan mehnat buyumlaridir. Ularga bevosita ish joylari, dastgohlarda qayta ishlash jarayonini o'tayotgan mehnat buyumlari kiritiladi, hamda o'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi 1995 yil 15 fevralda 54-son bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tannarx bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

Korxona ishlab chiqarish faoliyatida tugallanmagan ishlab chiqarishni yo'qotish uchun hozirgi davrda zamonaviy yangi texnikalardan to'g'ri foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tatbiq etishni taqozo etadi. Chunki, ular yordamida tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta'minlanadi. Shuning bilan birgalikda ishlab chiqarishni turlicha shakllarini, asosiy e'tiborni nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarni barpo etish va rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir. Sababi, ularda mulkka egalik qilish hissiyoti doimo yuqori darajada bo'ladi. Darhaqiqat, nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarda tovar-moddiy zahiralari ularning mulki hisoblanadi. Undan imkoniyat doirasida samarali foydalanishga katta e'tibor beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tugallanishini ta'minlashda iqtisodiy tahlilning ahamiyati beqiyosdir. Korxonada tovar-moddiy zahiralardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarini tejash, tugallanmagan ishlab chiqarishni vujudga kelish sabablarini aniqlash va foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin. Buning uchun esa, tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi va unga sarflangan xarajatlar tahlilining o'tkazish ketma-ketligini har bir korxona o'zining tahlil o'tkazish maqsadidan kelib chiqib belgilashi kerak. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish tahlilida asosan tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi va ishlab chiqarish muddati, uni vujudga kelish sabablarini aniqlash, unga sarflangan xarajatlar tarkibi va ularni to'g'ri boshqarish hamda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajasda kamaytirishga e'tibor beriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirishdan maqsad - tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini shakllanishi, miqdori, manbasi, paydo bo'lish davri va tugatilishi, xarajatlar tarkibi, tugallanmagan ishlab

chiqarishning paydo bo'lish sabablari va xarajatlarni belgilangan me'yorlarga mosligi bo'yicha ko'rsatkichlarni baholash, ularni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil natijalari asosida tugallanmagan ishlab chiqarishni tayyor mahsulotga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining miqdori, xarajatlar turkumi va tugallanmagan ishlab chiqarishni paydo bo'lish sabablarini o'rganish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini belgilangan xarajatlar (biznes-reja, xarajatlar smetasi hujjatlari) normativiga mosligini va me'yordan chetga chiqishlar sabablarini hamda ularga ta'sir etgan omillarni tahlili qilish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini jami korxona xarajatlari tarkibidagi salmog'i va nisbatini o'rganish hamda baholash;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha muhim ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va ularning o'zgarishini omilli tahlil qilish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari aylanuvchanligini o'rganish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini gorizontaal va vertikal tahlilini amalga oshirish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tovar-moddiy zahiralarni etkazib berish borasida korxonalararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini baholash va uni kamaytirishda foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish va boshqalar.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili uchun zarur ma'lumotlar korxona moddiy-texnika ta'minoti rejasi, xom ashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnoma hamda moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanishning statistik hisobotlaridan olinadi. Korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlil etishda ularni sarflanishi bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy ma'lumotlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek,

tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining ma'lumot manbalari sifatida dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahirolari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)», «Tayyor mahsulot» (170-satr), Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari ma'lumotlari hisoblanadi.

Odatda, korxona xarajatlari bo'yicha faoliyatini tahlil qilishda ma'lumotlar manbai yig'iladi. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish maqsadida ma'lumotlar to'g'riligi tekshiriladi. Tahlil uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tekshirish ikki usulda olib boriladi:

- Yuzaki tekshirish;
- Mazmun jihatidan tekshirish.

Yuzaki tekshirishda hisobotga barcha ma'lumotlarni kiritilganligi, ularning arifmetik yig'indisi, Moliya vazirligi hamda Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan tasdiqlangan hisobot shakllariga rioya qilinganligi, hisobot shakllarining bir-biri bilan bog'liqligi, hisobotni topshirish muddati, mansabdorlarning imzosi tekshiriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni qanday va qaysi ko'rsatkichlar bilan tahlil qilish, eng avvalo, tahlilchining oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi. Agar tahlil tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u holda, tahlilchi tugallanmagan ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi, hajmi, ishlab chiqarish davri va muddati, uning shakllanish manbalarini va uni paydo bo'lish sabablarini tahlil qiladi. Agar tugallanmagan ishlab chiqarishga sarflangan materiallar samaradorligini bilmoqchi bo'lsa, u holda material sig'imi, material qaytimi ko'rsatkichlarini, material qiymatliklarning moliyaviy natijalarga ta'sirini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini o'tkazish uchun tahlilchi xarajatlarni moliyaviy hisobot moddalari bilan qanday bog'liqligini bilishi kerak.

Korxonani tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish davomida ko'plab manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Tahlilda qo'llaniladigan manbalarni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

1. Reja ma'lumotlari manbalari;

2. Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalari;
3. Qo'shimcha ma'lumotlar manbai.

Reja ma'lumotlari manbalari tarkibiga tovar-moddiy zahiralari bo'yicha biznes reja ko'rsatkichlari, belgilangan limitlar, belgilangan norma va normativlar, shartnoma ko'rsatkichlari kiradi. Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalariga tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiradi. Tahlilning asosiy ma'lumotlar manbai bu buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari bo'lib, ular korxona xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi, miqdori, shakllanishi ularning manbalari va ularning xo'jalik muomalalari aks etadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini yanada chuqurroq amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga taaluqli bo'lmagan, ya'ni, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish lozim bo'ladi. Bunday ma'lumotlar tarkibiga bank, moliya va soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma, inspektorlarni taqdim etgan ma'lumotlari, auditor xulosalari, radio va televideniya ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari, ishchi va xizmatchilar bilan bo'lgan muloqot natijalari kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili ma'lumotlari va ularni natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxona va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

II Bob. Bozor munosabatlari sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning amaliy jihatlari

2.1. Tugallanmagan ishlab chiqarishni shakllanishi va uni baholash usullari

Yuqorida ta'kidlanganidek, kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Jumladan, kelgusi yilda paxta, bug'doy, sabzavot va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda yerlarni haydash, tekislash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kelgusi yilda go'sht yetishtirish uchun joriy yilda xarajatlar qilinadi. Bunday xarajatlar bog'dorchilikda ham mavjud.

Moliyaviy hisobotlardagi «tayyor mahsulot» moddasi bo'yicha (170-satr) ishlab chiqarishi tugallangan, sinov va qabul qilishdan o'tgan, buyurtmachilar bilan shartnoma shartlariga ko'ra barcha qismlar bilan butlangan va texnik shartlar hamda standartlarga muvofiq bo'lgan buyumlar qoldiqlarining, ko'rgazmada bo'lgan va boshqa korxonalarga komissiyaga (konsignatsiyaga) topshirilgan, tayyor mahsulotni hisobga olish hisobvaraqlarida (2800) hisobga olinadigan tayyor mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan mahsulot va topshirilmagan ishlar tugallanmagan, deb hisoblanadi va tugallanmagan ishlab chiqarish tartibida ko'rsatiladi. «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi korxonaning turli tsexlarida ishlab chiqarilgan, lekin hali ishlab chiqarilishi yakunlanmagan mahsulot xarajatlarning summasini aks ettiradi.

Ishlov berishning barcha bosqichlarini o'tmagan, texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilinmagan, buyurtmachilar tomonidan olinmagan mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarishlar hisoblanib, ularga tegishli xarajatlar esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarilib omborga topshirilgan mahsulotlar xarajatlarni aniqlashdan oldin bu xarajatlarni tugallanmagan ishlab chiqarishlar xarajatlardan ajratib olish kerak, chunki oy davomida bu ikki xil xarajat birga hisobga olib boriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlar hajmini aniqlash uchun detal, uzel va shu kabilarni qoldiqlari harakati hisobini yuritish lozim. Ishlov berishning har bir bosqichida vaqti-vaqti bilan mavjud tugallanmagan ishlab chiqarishlarni tekshirish, hisob ma'lumotlarini inventarizatsiya ma'lumotlari bilan taqqoslash kerak.


Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari harakatini miqdoriy tezkorlik hisobi sexlarning dispetcherlik byuro xodimlari tomonidan olib boriladi. Lekin tugallanmagan ishlab chiqarishlar xarajatlarning qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat tugallanmagan ishlab chiqarishlarni inventarizatsiya qilish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Doim bir oydan ikkinchi oyga o'tadigan tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishda tayyor mahsulotga tegishli xarajatlarni aniqlash uchun ularni har oyda baholab turish kerak. Bunda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxini aniqlash uchun oy boshiga o'lgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga oy davomida qilingan xarajatlarni qo'shib hisobdan chiqarilgan, qaytarilgan hamda oy oxiriga qolgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari summasini olib tashlash kerak. Shuning uchun tugallanmagan ishlab chiqarishlar qoldiqlarini to'g'ri aniqlash va ularni baholash muhim ahamiyatga ega. Tugallanmagan ishlab chiqarishlar qoldiqlarini aniqlash va baholashdagi noaniqliklar ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini noto'g'ri aniqlashga olib keladi.

Buyurtma usulida hisob yurituvchi yakka va mayda seriyali ishlab chiqarishlarda tugallanmagan ishlab chiqarishlar, odatda baholanmaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati tugallanmagan buyurtma xarajatiga teng. Yirik seriyali va ko'plab ishlab chiqaradigan korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarishlar har oyda baholanadi. Baholash usulidagi farq ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish usuliga bog'liq.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning bir necha usuli mavjud. Bunday baholash texnologik jarayonning xususiyati va moddiy hamda ishlov xarajatlarining barcha ishlab chiqarish xarajatlaridagi salmog'iga bog'liq. Masalan, moddiy xarajatlar katta salmoqqa ega bo'lgan sanoat korxonalarida, jumladan,

to'qimachilik sanoatida, tugallanmagan ishlab chiqarish faqat xom- ashyo va material qiymati bo'yicha baholanadi. Lekin yillik hisobot tuzilayotganda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymatiga ishlab chiqarish xarajatlarining summasi rejali summalarda qo'shiladi(2-chizma).



2-chizma. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash usullari⁷

Yarim tayyor mahsulotli usulda har bir oldingi qayta ishlov mahsuloti keyingi qayta ishlov uchun yarim tayyor mahsulot sanaladi yoki tashqariga sotishi mumkin. Bu yarim tayyor mahsulotlarni haqiqiy, normativ yoki rejaviy tannarx bo'yicha, yohud hisob-kitob yoki mahsulotni chiqarib yuborish baholari bo'yicha baholash zaruratini belgilaydi. Bu variantda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida - "O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar" degan moddada aks ettiriladi.

Yarim tayyor mahsulotsiz variantda har bir qayta ishlov bo'yicha, asosan, faqat ishlov berishga ketgan xarajatlar olinadi. Tayyor mahsulot tannarxi xom ashyo, dastlabki materiallar xarajatlari, ishlovga berilgan barcha qayta ishlovlar xarajatlari va ishlab chiqarish xarajatlarini umumlashtirish bilan hisob qilinadi. Bunda faqat tayyor mahsulot tannarxi kalkulyatsiya qilinadi.

Misol. Mashinasozlik zavodida stanoklar tayyorlov va yig'uv sexlarida ishlab chiqariladi. Demak, buyumlar har xil ishlab chiqarish bosqichida va har xil miqdorda sexlarda tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lib o'oladi. Inventarizatsiya dalolatnomasi bo'yicha oy boshiga quyidagi ma'lumotlar mavjud:

- tayyorlov sexida 6 – operatsiyada – 10 dona
- yig'uv sexida 2 – operatsiyada 2 dona

⁷ Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

Tayyorlov sexida tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash uchun ma'lumotlar:

- bir stanok uchun material xarajatlari – 340 so'm,
- to'liq ishlov berish uchun ish haqi – 100 so'm,
- oltita operatsiyalar bo'yicha – 80 so'm.

Yig'uv sexida bir stanok uchun material xarajati – 300 so'm, to'liq ishlov berish bo'yicha ish haqi – 70 so'm, inventarizatsiya vaqtiga esa – 50 so'm sarflangan. Ishlab chiqarish hisobi yarim tayyor mahsulotsiz variantda yuritilganda to'g'ri xarajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish quyidagicha aniqlanadi(1-jadval):

1-jadval

Tayyor mahsulotsiz variantda yuritilganda to'g'ri xarajatlar bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish⁸

Tayyorlov sexi	summa	Yig'uv sexi:	summa
Materiallar 340 x (10+15)	8500	Materiallar (300x15)	4500
Ish haqi (80x10)+(100x15)	2300	Ish haqi (50x15)	750

Ishlab chiqarish hisobi yarim tayyor mahsulotli variantda yuritilganda bu misolni ma'lumotlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi(2-jadval). Ikkala holda ham tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati bir xilda (16050 so'm). Demak, ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to'g'ri hisoblangan. Sexlar bo'yicha natijalar har xil bo'ladi. Masalan, yarim tayyor mahsulotsiz variantda barcha buyumlar, inventarizatsiya paytida o'aysi sexda bo'lishdan qat'iy nazar, faqat ma'lum sex xarajatlari bo'yicha baholanadi. Shunday qilib, tugallanmagan ishlab chiqarish yarim tayyor mahsulotsiz variantda baholashda tayyor mahsulot tannarxidagi sex xarajatlari ulushini butun korxona bo'yicha aniqlash mumkin, lekin mazkur sex tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning sex tannarxini aniqlash mumkin emas.

⁸ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

**Ishlab chiqarish hisobi yarim tayyor mahsulotli variantda yuritilganda
tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash⁹**

Yig'uv sexi	so'm
Materiallar:	
Tayyorlov sexi bo'yicha (340x15)	5100
Yig'uv sexi bo'yicha (340x15)	4500
Ish haqi:	
Tayyorlov sexi bo'yicha (100x15)	1500
Yig'uv sexi bo'yicha (50x15)	750
jami	11850
hammasi	16050

Sex mahsuloti tannarxini aniqlash uchun shu sexninig tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'ini faqat mazkur sex xarajatlari bo'yicha baholash kerak. Shu mao'sadda tugallanmagan ishlab chiqarish baholanadi va "o'z sex xarajatlari bo'yicha", ya'ni birinchi vujudga kelgan sex xarajatlari bo'yicha deb ko'rsatiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash bo'yicha yuqorida keltirilgan hisoblardan ko'rinib turibdiki, asosiy mao'sad to'g'ri xarajatlarni aniqlashdan iborat. To'g'ri xarajatlar (materiallar, asosiy ish haqi) har bir kalkulyatsiya ob'ekti (buyum, detal va sh.k.) bo'yicha amaldagi normalarga asosan hisoblab topiladi. O'lgan xarajatlar to'g'ri xarajatlarga nisbatan foiz hisobida topiladi:

- transport – tayyorlov xarajatlari va o'aytariladigan chio'indilar materiallarning normativ qiymatiga nisbatan;

- normativ kalkulyatsiyasida belgilangan foiz hisobidagi ishlab chiqarish ishchilarning o'o'shimcha haqlari – norma bo'yicha asosiy ish haqiga nisbatan;

- ijtimoiy sug'urtaga ajratma – norma bo'yicha asosiy va o'o'shimcha ish haqlariga nisbatan;

- mashina va uskunalarni asrash va ulardan foydalanish xarajatlari – uskunalarini bir soatlik ishining smeta stavka (xarajat)lari va uskunalarining sarflangan normalashtirilgan ish vaqti miqdori bo'yicha, lekin keyinchalik ularni norma bo'yicha asosiy ish haqi summasiga nisbatan hisoblash yo'li bilan;

⁹ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

- umumishlab chiqarish xarajatlari – norma bo'yicha ikkita ko'rsatkich summasiga nisbatan (ish haqi va mashina va uskunalarni asrash va ulardan foydalanish xarajatlari).

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni baholashning soddalashtirilgan usuli ham o'zlashtiriladi: ish haqi summasini operatsiyalar bo'yicha hisoblamasdan, oldingi sex bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishlar turgan sexning o'rtacha 50% to'liq ish haqisini oladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasini tarkibida dispetcherlik buyurosi, buxgalteriya va uchastka masterlari xodimlari bo'lgan inventarizatsiya komissiyasi o'tkazadi. Inventarizatsiya natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtirilib, unda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari detallar, uzellar va ularga ishlov berish bosqichlari bo'yicha aks ettiriladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish dalolatnomasi faqat yaroqli detal, uzel va shu kabilar bo'yicha tuziladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo'yicha inventarizatsiya dalolatnomalari buxgalteriyaning ishlab chiqarish guruhiga topshiriladi va u erda ular ishlab chiqiladi, ya'ni agar farqi bo'lsa, ta'virlash vedomosti tuziladi, tugallanmagan ishlab chiqarishlar baholanadi va aniqlangan og'irishlar (ortiqcha yoki kamomad) hisob registrlarida tegishli yozuvlar bilan tartibga keltiriladi. Amalda bu hisoblar kalkulyatsiya vedomosti yoki ishlab chiqarish analitik hisobi vedomostlarida buyumlarning guruhlari yoki turlari bo'yicha bajariladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga brakdan ko'rilgan yo'qotishlar, ixtisoslashgan maxsus inventar va xo'jalik jihozlari qiymati o'zlashtiriladi. Bu xarajatlar faqat tayyor mahsulotlar tannarxiga o'zlashtiriladi. Agar brakdan ko'rilgan yo'qotishlar oy oxiriga xali tugatilmagani ma'lum buyurtmaga tegishli bo'lsa, ular tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga o'zlashtiriladi.

2.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida aks ettirish xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" nomli 21-son BHMSga muvofiq tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining hisobot davri oxiridagi qoldig'i orqali aniqlanadi. Shuningdek, 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti, 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti va 2710 "Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar" schyotlari bo'yicha oy oxiridagi qoldiqlar hisobot davri oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

"Xarajatlar tarkibi... to'g'risidagi" Nizomga muvofiq tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xarajatlar elementlaridan tashkil topadi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi.

Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubi har bir korxona o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi.

**Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini
buxgalteriya schyotlari orqali shakllanishi¹⁰**

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi	2010	0211-0299
2	Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga taalluqli bo'lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	2010	0510-0590
3	To'g'ri material xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga hisobdan chiqarildi	2010	1010-1090
4	Chorvachilik mahsulotini olish uchun hayvonlarni so'yish (hayvonlar qiymati)	2010	1110, 1120
5	Yordamchi tsexlarning xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishning mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritish	2010	2310
6	Umumishlabchiqarish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarining tannarxiga kiritilishi	2010	2510
7	Asosiy ishlab chiqarishdagi sug'urta xarajatlari	2010	6510
8	Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha maqsadli davlat jamg'armalariga ajratmalar	2010	6520
9	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to'lash bo'yicha summalar hisoblandi	2010	6710
10	Mahsulotni xaqiqiy tannarx bo'yicha ishlab chiqarish	2810	2010
11	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi	5910	2010
12	<i>Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash:</i> <i>a) qiymatining oshirilishi</i> <i>b) qiymatining kamaytirilishi</i>	<i>2010</i> <i>3290</i>	<i>6230</i> <i>2010</i>
13	Asosiy tsexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim kilindi	2010	9390
14	<i>Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardagi, umumishlabchiqarish omborlaridagi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim qilindi</i>	<i>2010, 2310, 2510, 2710</i>	<i>9390</i>
15	<i>Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarildi</i>	<i>9720</i>	<i>2010</i>
16	<i>Tabiiy ofat tufayli tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar</i>	<i>9720</i>	<i>2010, 2110, 2310</i>
17	<i>Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarildi</i>	<i>9720</i>	<i>2010</i>
18	<i>Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda ortiqcha tugallanmagan ishlab chiqarishning kirim qilinishi</i>	<i>2710</i>	<i>9390</i>
19	<i>Asosiy tsexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim kilindi</i>	<i>2010</i>	<i>9390</i>


Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi(3-jadval).

0810 "Tugallanmagan qurilish" schyotida (qurilish pudrat yoki xo'jalik usulida amalga oshirilishdan qat'i nazar) kapital qurilish smetalari, smeta-loyiha

¹⁰ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

hisob-kitoblarida va titul ro'yxatlarida keltirilgan bino va inshootlarni barpo etish, uskunalar, asboblari, inventarlar va boshqa jihozlarni sotib olish bo'yicha xarajatlar hisobga olinadi.

Chetga ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning qiymati tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2800) aks ettirilmaydi. Ular bo'yicha haqiqiy xarajatlar, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlardan 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi" schyotiga hisobdan chiqariladi. Buyurtmachilarga joyida topshiriladigan va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilmagan mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida qoladi.



3-chizma. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar¹¹

Yuqorida ta'kidlanganidek, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishlab chiqarish xarajatlari, ya'ni mahsulot tannarxi tarkibida hisobot davri oxirida aniqlanadi, bu esa korxona buxgalteri oldida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri, to'liq va o'z muddatida buxgalteriya hisobida aks ettirishni talab etadi. Shu ma'noda, mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi (3-chizma).

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi(4-jadval):

¹¹ Chizma muallif tomonidan tayyorlangan

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyotida aks ettiriladi. Bunda, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari inventarizatsiya yordamida aniqlanadi yoki me'yoriy (rejadagi) tannarx bo'yicha aks etdiriladi va 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoting debeti bo'yicha qoldik, sifatida chiqarib olinadi.

2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schetining debetida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, brakdan ko'rilgan yo'qotishlar va asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar aks ettiriladi(4-jadval).

Yordamchi ishlab chiqarishlar asosiy ishlab chiqarish yoki korxonaning asosiy faoliyati uchun yordamchi (ko'makchi) bo'lgan ishlab chiqarishlar bo'lib, ular 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schetida hisobga olinadi. Bu schet aktiv bo'lib, debetida yordamchi ishlab chiqarishlar bo'yicha qilingan xarajatlar, kreditida ishlab chiqarishi tugatilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy tannarx summasi aks ettiriladi. Bu schetning debeti hisobot davri boshiga o'olgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari summasini ko'rsatadi.

2310 – schetidan xarajatlarni hisobga olishda quyidagi yordamchi ishlab chiqarishlar foydalanadi:

- turli xil energiyalar, elektroenergiya, gaz va boshqalar bilan xizmat ko'rsatish;
- transport xizmatini ko'rsatish;

- asosiy vositalarni ta'mirlash;
- instrumentlar, shtamplar, o'urilish detallari, konstruktsiyalar tayyorlash yoki o'urilish materiallarini boyitish (asosan o'urilish korxonalarida);
- tosh, shag'al, o'um va boshqa rudasiz materiallar o'azib olish;
- yog'och tayyorlash va yog'och arralash;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini tuzlash, qoqi qilish va konservalash (asosan savdo korxonalarida);
- maxsus kiyimlar va maxsus poyafzallarni ta'mirlash va tikish va boshqalar.

4-jadval

Tannarxiga kiruvchi asosiy ishlab chiqarish xarajatlari¹²

Xarajat guruhi	Xarajat moddolari	Boshlang'ich hujjatlar va hisob registrlari
Bevosita material xarajatlari	bevosita sarflangan xom ashyo materiallari, yarim fabrikatlar va buyumlar, yoqilg'i va moylash materiallari, xo'jalik inventarlari va boshqa materiallar	• Material hisoboti (M-19) • Material sarfi hisoboti (M-29)
Bevosita mehnat haqi xarajatlari	brigadalar a'zolariga hisoblangan asosiy ish haqi va mukofatlar	• Naryadlar • Tabellar • Hisob-to'lov qaydnomalari
Bevosita mehnat haqi fondidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	brigada a'zolari ish haqi fondidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	• Ijtimoiy sug'urtaga ajratma hisob-kitobi
Amortizatsiya ajratmalari	Ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi	• Amortizatsiya hisob-kitobi • 10-jurnal-order
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita ustama xarajatlari)	1.Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari olib borilgan materiallar qiymatidagi farqlar 2.Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari olib borilgan turli xizmatlar (loyihalashtirish, sertifikatlash va transport xizmatlari, gaz, suv va elektr quvvati bilan ta'minlash, ta'mirlash va boshqa xizmatlar) 3.Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari olib borilgan me'yordagi yo'qotishlar 4.Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari olib borilgan yordamchi ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish xarajatlari 5.Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarilgan kelgusi davr xarajatlari 6.Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	• Schyot-fakturalar • Dalolatnomalar • Buxgalteriya hisob-kitoblari • Boshqa hujjatlar va registrlar

Bundan tasho'ari, bu schetda korxona balansida turgan ilmiy – tado'io'ot va tajriba – konstruktorlik bo'linmalar xarajatlari ham aks ettirilishi mumkin.

¹² Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari har bir xarajat turkumi va xususiyatiga mos keluvchi sintetik va analitik hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Masalan, material xarajatlari TMZ harakati bo'yicha hujjatlarda, mehnat haqi xarajatlari ish haqi bo'yicha hujjatlarda rasmiylashtiriladi. Yordamchi ishlab chiqarishlar tomonidan tayyorlangan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar quyidagi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

- nakladnoylar – omborga topshirilgan tayyorlangan instrumentlar miqdorini ko'rsatib;
- ta'mirlangan ob'ektlarni qabul qilish – topshirish dalolatnomasi – bajarilgan va topshirilgan ta'mirlash ishlariga;
- yo'l varaqalari – transport sexining tashigan yuk hajmiga;
- bosh energetik, bosh texnolog, bosh mexaniklarning bergan ma'lumotlari (spravkalari) – oddiy ishlab chiqarishlar tomonidan bajarilgan ishlar xizmatlar hajmiga. Yordamchi ishlab chiqarishlar, mahsulotlari xizmat va ishlari korxona ichida asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqarmasi tomonidan iste'mol qilinishi va chetga sotilishi ham mumkin.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarga ishlab chiqarish jarayonining barcha texnologik bosqichlaridan o'tmagan mahsulotlar hamda komplektlanmagan, sinovdan va texnik qabuldan o'tmagan buyumlar kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning turli usullari mavjud: haqiqiy o'lchov, donabay o'lchov, hajmini o'lchash, shartli qayta baholash. Ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarishda hisobot davrining oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishlar qoldiqlari normativ yoki rejadagi ishlab chiqarish tannarxi (to'liq yoki to'liqmas) bo'yicha, bevosita xarajat moddalari bo'yicha hamda xomashyo, materiallar va yarim fabrikatlar qiymati bo'yicha baholanadi.

“Tovar-moddiy zaxiralar” nomli 4-son BHMSga muvofiq tugallanmagan ishlab chiqarish, ish va xizmat ko'rinishidagi korxona aktivlari ham tovar- moddiy zaxiralar hisoblanadi. Mazkur standartga muvofiq, korxona buxgalteri tugallanmagan ishlab chiqarishni ham har chorakda inventarizatsiyadan o'tkazib turishi talab etiladi. Chunki, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari

buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri bu ularni belgilangan muddat va tartiblar asosida nazorat qilish hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilish jarayonida quyidagi masalalarni o'rganish zarur:

- xarajatlar hisobini ahvoli;
- inventarizatsiya o'tkazishning o'z vaqtidaligi va to'g'riligi;
- inventarizatsiya natijalarini aks ettirishning ishonchliligi;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning texnologiyasi va belgilangan me'yorlariga (agar ular korxonda tasdiqlangan bo'lsa) rioya qilinishi va uni baholashning to'g'riligi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni inventarizatsiya qilish “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom” va u asosida ishlab chiqilgan tarmoq yo'riqnomalarida belgilangan tartibga muvofiq ularning hajmi va haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadidan iborat.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilishda quyidagi masalalar o'rganilishi zarur:

- mahsulotlar ishlab chiqarishi boshlangan (detallar, qismlar, agregatlar) va ishlab chiqarilishi va yig'ilishi tugatilmagan, ishlab chiqarishda bo'lgan haqiqatda borligini aniqlash;
- hisobga olinmagan yaroqsizini aniqlash;
- tugatilmagan ishlab chiqarishni haqiqiy jihozlanishi va qismlar bilan yig'ilishini ta'minlanganligini aniqlash;
- tugatilmagan ishlab chiqarish qoldig'ini bekor qilingan buyurtmalar, shuningdek, bajarilishi to'xtatib qo'yilgan buyurtmalar bo'yicha aniqlash;
- ishlab chiqarishda bo'lgan ishlab chiqarish boshlangan (detallar, qismlar, agregatlar) va mahsulotlar ishlab chiqarilishi va yig'ilishi tugatilmaganining haqiqiy qiymatini aniqlash.

Inventarizatsiyani boshlashdan oldin sexlarga kerak bo'lmagan barcha materiallar, sotib olingan detallar va yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek mazkur

bosqichda ishlov berilishi tugatilgan detallar, qismlar va agregatlar omborxonaga topshirilishi kerak.

Sexlardagi boshlab qo'yilgan tugallanmagan ishlab chiqarishlar va yarim tayyor mahsulotlar ularning miqdorini to'g'ri aniqlash va qulay sanalishini ta'minlaydigan tartibga keltirilgan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarilishi tugallanmagan mahsulotlarni (detallar, qismlar, agregatlar) qoldig'i haqiqatda sanash, tortish, o'lchash yo'li bilan tekshirilib amalga oshiriladi.

Ro'yxatlar har bir sex (uchastka, bo'linma) bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishlar nomi, ularning tayyorlik darajasi, soni yoki hajmi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha ish hajmi ko'rsatilib; tugallanmagan korxonalar, ularning navbatlari, obyektlar, ishga tushiriladigan majmualar, qaysiki ular bo'yicha hisob-kitoblar ular to'liq tugatilgandan keyin oraliq to'lovlarsiz amalga oshiriladi; konstruktiv elementlarning tugallanmagan qismlari va ishlarning turlari bo'yicha alohida tuziladi.

Ish joylarida qayta ishlanishi boshlanmagan xomashyo, materiallar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish ro'yxatiga kiritilmaydi, alohida inventarizatsiya qilinadi va alohida ro'yxatlarda qayd qilinadi. To'liq yaroqsiz deb topilgan detallar ham tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibiga kiritilmaydi.

Bir xil bo'lmagan massa yoki qorishmadan iborat bo'lgan tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo'yicha (sanoatning tegishli tarmoqlarida) inventarizatsiya ro'yxatlarida, Shuningdek, solishtirish vedomostlarida ikkita miqdoriy ko'rsatkich keltiriladi: ushbu massa yoki qorishma miqdori va uning tarkibiga kiruvchi xomashyo miqdori yoki materiallar (alohida nomlari bo'yicha). Xomashyo va materiallarning miqdori tarmoq yo'riqnomalari bilan belgilangan tartibda texnik hisob-kitob bo'yicha aniqlanadi.

Tugallanmagan kapital qurilish soni va hajmi inventarizatsiya paytida uning haq to'langan qismini hamda tekshirish yo'li bilan aniqlanadi. Inventarizatsiya dalolatnomalarida obyektning nomi va ushbu obyekt bo'yicha bajarilgan ishlarning, konstruktiv elementlarning, jihozlarning va h. k. har bir alohida turi

bo'yicha ko'rsatiladi. Xususan, inventarizatsiya komissiyasi quyidagilarni tekshiradi.

- tugallanmagan kapital qurilish tarkibida montajga berilgan, lekin haqiqatda montaji boshlanmagan uskunani hisobda turganligi yoki yo'qligi;

- qurilishi butkul to'xtatilgan yoki vaqtincha to'xtatilgan qurilish obyektlarining ahvoli.

Mazkur obyektlar bo'yicha, qisman, ularni butkul to'xtatish sabablari va asoslarini aniqlash kerak.

Haqiqatda foydalanishga to'liq yoki qisman topshirilgan, qabul qilinishi va ishga tushirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan, qurilishi tugallanmagan obyektlarga alohida dalolatnomalar tuziladi. Alohida dalolatnomalar tugallangan, lekin nima uchundir foydalanishga topshirilmagan obyektlarga ham tuziladi. Mazkur dalolatnomalarda ko'rsatilgan obyektlar foydalanishga topshirilishini rasmiylashtirishning kechiktirilganlik sabablari ko'rsatiladi.

Balansdan chiqarilishi kerak bo'lgan qurilishi tugatilgan obyektlarga, shuningdek, qurilishi amalga oshirilmagan obyektlar bo'yicha loyiha-izlanish ishlariga bajarilgan ishlar xususiyati va ularning qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar qurilishning to'xtatilishi sabablari ko'rsatilib dalolatnomalar tuziladi. Buning uchun tegishli texnik hujjatlar, ishlar, bosqichlar topshirilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, qurilish obyektlarida bajarilgan ishlarni hisobga olish jurnali va boshqa hujjatlardan foydalanish kerak bo'ladi.

Binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar, energetik jihozlar va boshqa obyektlar qonunsiz kapital ta'mirlanganining inventarizatsiyasi bajarilgan ishlarni naturada tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tugallanmagan kapital ta'mirlash bo'yicha ta'mirlanayotgan obyektning nomi, bajarilgan ishlarning nomi va bajarilish foizi, bajarilgan ishlar-ning smeta bo'yicha va haqiqiy qiymati ko'rsatilgan dalolatnoma tuziladi.

III Bob. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirish tartibi va uni mukammallashtirish masalalari

3.1. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini tashkil etish bosqichlari va natijalarni umumlashtirish xususiyatlari

Bozor munosabatlari sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liqdir. Odatda, tahlil ishlarida nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funktsional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Fikrimizcha, amaliyotda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tahlilning rejasi va dasturini tuzish bosqichi. Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari bizning fikrimizcha, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil ob'ektini aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izoxlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

2. Tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;

- tahlil manbalarini to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish;

3. To'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi. To'plangan manbalarni to'g'riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

4. Bevosita xo'jalik sub'ektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

5. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi. Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxona faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxona faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

6. Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tadbqiq etish bosqichi.

Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxona faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tadbqiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligimizga qarab bajariladi. Masalan, korxonalarning yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarni ma'ruzasi, korxona rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni va taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni, takliflar ham ko'rsatiladi.

Korxonada tugallanmagan ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlari ya'ni tannarxlari – ko'p jihatdan xom ashyo va materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Material resurslar miqdorini rejalashtirilgan hajmda tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Material resurslardan tejab-tergab foydalanilmasa hamda ularning amaliyotdagi foydalanilishi belgilangan me'yorlarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda keltirilgan materiallar mahsulot ishlab chiqarish davomiyligi rejasini bajarish uchun etarli bo'lmaydi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu holda mahsulot hajmi qanchaga kam yaratilganligi yoki moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida qancha qo'shimcha mahsulot barpo etilganligini aniqlash bo'lib hisoblanadi. Ularni quyidagi usullardan foydalangan holda hisoblash mumkin:

- korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish birligi uchun belgilangan xarajat me'yori material resurslarga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi;
- erishilgan iqtisod yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi;
- moddiy resurslardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan ortiqcha xarajat reja bo'yicha ko'zlangan xarajat me'yoriga taqsimlanadi"¹³.

Shu tartibda, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha belgilangan me'yorga nisbatan erishilgan iqtisod asosida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ularni tejab-tergab foydalanmaslik oqibatida ortiqcha xarajatlarni yuzaga kelishi zaminida ishlab chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi.

Ma'lumki, tahlilda korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijaviyligini qanday ekanligini aniqlash o'ta muhim ahamiyatga egadir. Korxona faoliyati natijaviyligi esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va foyda summasini oshirishga erishishga bog'liq. Biz bitiruv malakaviy ishi mavzusining mohiyatini ochib berishda ishda «Qizilqumtsement» aktsiyadorlik jamiyati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari misolida tahlil qildik.

Bitiruv malakaviy ishida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilingan:

- tugallanmagan ishlab chiqarish holatining tahlili;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatalari aylanishining tahlili;
- ishlab chiqarishga berilgan materiallarning ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga ta'sirining tahlili;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tarkibining tahlili;
- tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha material xarajatlarga sarf me'yori va baho o'zgarishi ta'sirining tahlili.

Tugallanmagan ishlab chiqarish moliyaviy hisobotlar hisoblanmish balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari bilan quyidagicha bog'liqdir:

- 150-satr. Ishlab chiqarish zaxiralari;
- 160-satr. Tugallanmagan ishlab chiqarish;

¹³ Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibroximov A.T. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013

- 170-satr. Tayyor mahsulot.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari bilan bog'liqligi:

- 020-satr. Sotilgan mahsulot tannarxi;

- 240,250 va 270-satrlar. Soliq bazasi, soliq summasi va sof foyda moddalari;

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek tahlilchi oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra tugallanmagan ishlab chiqarishni yo balans moddalariga ta'siri bo'yicha, yo moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari bo'yicha tahlil ishlarini amalga oshiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni balans moddalari bilan bog'liqligini ko'rib chiqamiz:

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va har bir buyurtma bilan bog'liq rasmiylashtirish xarajatlari bevosita 150-satr ishlab chiqarish zaxiralari qiymatiga ta'sir etadi va bu xarajatlar jamlanib balansning shu satrida ko'rsatiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni mahsulot ishlab chiqarish tannarxida tarmoq xususiyatidan kelib chiqib 60-80% ni tashkil etishini ta'kidlab o'tsak, uning tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot moddalariga ta'sirini izohlab o'tirishning keragi yo'q.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot moddalari bilan bog'liqligini ko'rib o'tamiz. Tugallanmagan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishda zahiralarining ma'lum sanaga mavjud hajmi, ularning tarkibi va tuzilmasini aniqlash, ularning yil davomida o'zgarishini hisoblab chiqish, zaxiralarning joylashtirilishini tahlil qilish kerak bo'ladi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek tugallanmagan ishlab chiqarishni korxonada eng optimal hajm darajasida ushlab turishga harakat qilinadi. Buning uchun eng avvalo, xarajatlar turlari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Biz, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'nalishlarini o'rganar ekanmiz, bunda tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish omillarining bir ko'rsatkichi bo'lgan materiallarning cheklanganligi, avvalo ulardan samarali va to'g'ri foydalanishni talab etadi. Shuning uchun, korxonaning tovar-moddiy zaxiralar bilan qay darajada ta'minlanganligi va ulardan qanchalik samarali foydalanayotganligiga katta e'tibor qaratish lozim. tovar-moddiy zaxiralardan

foydalanish darajasini ko'proq ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga nisbatan o'rganar ekanmiz avvvalo material xarajatlarga sarf me'yori va baho o'zgarishining ta'sirini o'rganib chiqishimiz lozim. Material xarajatlar mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi. Shu sababli ularning o'zgarishini o'rganishda, albatta, o'zaro aloqadorlik darajasiga ham ahamiyat berish talab etiladi. Bunda har bir tugallanmagan ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri keladigan yoki ishlab chiqarish xarajatlarining material sig'imi ko'rsatkichlariga muhim e'tibor berilishi lozim. "Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan birga o'zgaruvchan xarajatlar bilan bir qatorda, doimiy xarajatlar ulushi ham o'zgarib boradi. Lekin, hisob-kitob qilinadigan yuqorida keltirib o'tganimizdek ikki omil, bular, material xarajatlar sarf me'yori hamda material xarajatlar bahosining o'zgarishidir. Barcha omillar ta'sirini shu ikki omil vositasida hisoblash mumkin. Bu erda me'yor o'zgarishini miqdoriy birlik, baho ta'sirini esa sifat birligi, deb qaraladi. Bu erda tahlil uchun kerakli ma'lumotlar mahsulot kalkulyatsiyasidan olinadi. Bunday hisobot shaklida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan material turlari, ularning miqdori, material bahosi keltiriladi".¹⁴

3.2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini o'tkazish tartibi

Bizga ma'lumki, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday tadbirkorlik faoliyati kapitalni talab qiladi. Jami kapital tarkibida aylanma mablag'lar har qanday sharoitda asosiy va ustun mavqeni egallaydi. umuman olganda, aylanma aktivlar o'zining harakatchanligi, tez pulga aylanuvchanligi bilan korxona faoliyatida yuqori samara keltiruvchi mablag'lar hisoblanadi.

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanilsa, mahsulot tannarxi kamayadi, foyda ko'payadi va rentabellik darajasi ko'tariladi. Biroq bu aylanma aktivlarni qay tarzda shakllantirish va ulardan qanday foydalanishga bevosita bog'liq. Bu sohada hisob, tahlil va nazorat ishlarini takomillashtirish har qanday davr va iqtisodiy tizimda birdek dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹⁴ Yo. Abdullaev, A. Ibrohimov, M. Rahimov «Iqtisodiy tahlil» T.: «Mehnat» 2001

Korxona aktivlarini, xususan, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash ular holati va tarkibini o'rganish asosida aktivlarni boshqarish yuzasidan to'g'ri va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa, kapital harakatining uzluksizligi, doimiyligi, tez aylanuvchanligi va samaradorligini oshirish bo'yicha ishonchli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Shunga ko'ra, korxona tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari har doim baholab borish ularni samarali boshqarish orqali korxonada ishlab chiqarishning maromiyligini ta'minlash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi. o'z navbatida, olingan tahlil natijalari korxona kapitalini boshqarishdagi mavjud muammolarni ham aniq ko'rsatib beradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarga ishlab chiqarish jarayonining barcha texnologik bosqichlaridan o'tmagan mahsulotlar hamda komplektlanmagan, sinovdan va texnik qabuldan o'tmagan buyumlar kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning turli usullari mavjud: haqiqiy o'lchov, donabay o'lchov, hajmini o'lchash, shartli qayta baholash. Ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarishda hisobot davrining oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishlar qoldiqlari normativ yoki rejadagi ishlab chiqarish tannarxi (to'liq yoki to'liqmas) bo'yicha, bevosita xarajat moddalari bo'yicha hamda xomashyo, materiallar va yarim fabrikatlar qiymati bo'yicha baholanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish yarim tayyor mahsulotlardan farq qilib, biron bir tsex yoki uchastkada qayta ishlash jarayonini o'tab bo'lmagan mehnat buyumlaridir. Ularga bevosita ish joylari, dastgohlarda qayta ishlash jarayonini o'tayotgan mehnat buyumlari kiritiladi, hamda o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 yil 15 fevralda 54-son bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tannarx bo'yicha hisobotda aks ettiriladi.

Kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Jumladan, kelgusi yilda paxta, bug'doy, sabzavot va boshqa mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda

yerlarni haydash, tekislash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kelgusi yilda go'sht yetishtirish uchun joriy yilda xarajatlar qilinadi. Bunday xarajatlar bog'dorchilikda ham mavjud.

«Tayyor mahsulot» moddasi bo'yicha (170-satr) ishlab chiqarishi tugallangan, sinov va qabul qilishdan o'tgan, buyurtmachilar bilan shartnoma shartlariga ko'ra barcha qismlar bilan butlangan va texnik shartlar hamda standartlarga muvofiq bo'lgan buyumlar qoldiqlarining, ko'rgazmada bo'lgan va boshqa korxonalarga komissiyaga (konsignatsiyaga) topshirilgan, tayyor mahsulotni hisobga olish hisobvaraqlarida (2800) hisobga olinadigan tayyor mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan mahsulot va topshirilmagan ishlar tugallanmagan, deb hisoblanadi va tugallanmagan ishlab chiqarish tartibida ko'rsatiladi.

«Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi korxonaning turli tsexlarida ishlab chiqarilgan, lekin hali ishlab chiqarilishi yakunlanmagan mahsulot xarajatlarining summasini aks ettiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili xarajatni tavsiflovchi, tahlil qilinayotgan yil boshi va yil oxiri ko'rsatkichlarini va ularning o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibida asosiy ulushni bevosita material xarajatlar tashkil etadi. Ularning salmog'i ayrim sanoat korxonalarida salkam 60-80 % n tashkil etadi. Shu jihatdan material xarajatlarining o'zgarishi va o'zgarish sabablarini o'rganishdagi muhim vazifa, ularni (tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining kamayishiga yo'l qo'ymagan holda) iqtisod qilish va ulardan samarali foydalanishdir. Engil sanoatda tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxida materiallar xarajati yuqori salmoqqa (60-80%) ega. Shu bois tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash maqsadida material xarajatini rejaga nisbatan o'zgarish sabablari aniqlanmog'i lozim. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar tugallanmagan ishlab chiqarish kalkulyatsiyasi nomli hisobot shaklidan olinadi. Bu hisobot shaklida tugallanmagan ishlab chiqarish birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar turlari, ularni miqdori, material bahosi keltirilgan. Tugallanmagan ishlab chiqarish birligi uchun

sarflangan materiallar xarajatini aniqlash uchun tugallanmagan ishlab chiqarish birligiga sarflangan materiallar miqdorini material bahosiga ko'paytirish lozim. Tahlil etishda haqiqiy materiallar xarajati reja bilan taqqoslanib ular o'rtasidagi farqiga quyidagi omillar ta'siri hisoblanadi.

1. Materiallar miqdorini o'zgarishi (sarf me'yori).
2. Materiallar bahosini o'zgarishi (bahoni o'zgarishi).

Bu omillarni materiallar xarajatiga bo'lgan ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun materiallar xarajati 3 xil ko'rinishga ega bo'lishi lozim.

1. Rejadagi materiallar xarajati (rejadagi sarf me'yori rejadagi bahoda).
2. Xaqiqiy materiallar xarajati (xaqiqiy sarf me'yori xaqiqiy bahoda).
3. Shartli material xarajat (haqiqiy sarf me'yori rejadagi material bahosi bo'yicha).

Har 3 ko'rsatkichni bir-biri bilan taqqoslash orqali materiallar xarajatiga sarf me'yorini hamda material bahosining o'zgarishini ta'siri hisoblab topiladi. Materiallarning o'rindosh qiymatlari bilan almashtirilishi va hakozi omillar ta'siri ham, albatta, ushbu ikki omil ta'sirida hisob-kitob qilinadi. Omillar ta'sirini aniqlashda iqtisodiy tahlilning bog'lanish va aloqadorlik uchun mos bo'lgan usullari qo'llaniladi.

Material xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchan xarajatlari hisoblanadi. Shu sababli ularning o'zgarishini o'rganishda, albatta, o'zaro aloqadorlik darajasiga ham ahamiyat berish talab etiladi. Bunda har bir so'mlik tugallanmagan ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri keladigan yoki tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari material sig'imi ko'rsatkichlariga muhim e'tibor berilishi lozim.

Material xarajatlari o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning bir necha jihatini keltirish mumkin. Lekin hisob-kitob qilinadigan ikki omilni farqlash lozim. Bular, material xarajatlari sarf me'yori hamda material xarajatlari bahosining o'zgarishidir. Barcha omillar ta'sirini shu ikki omil vositasida hisoblash mumkin. Bu erda

me'yor o'zgarishini miqdoriy birlik baho ta'sirini esa sifat birligi deb qaralishi ham mumkin.

5-jadval.

«Qizilqumtsement» aktsiyadorlik jamiyatida xarajat me'yor va material bahosining o'zgarishini materiallar xarajatiga ta'sirining (zanjirli bog'lanish usulida) tahlili¹⁵

Ko'rsat kich lar	Material xarajatlari			Farqi (+,-)		
	Reja, rejadagi sarf me'yori reja bahoda	Haqiqiy, haqiqiy sarf me'yori haqiqiy bahoda	Shartli, haqiqiy sarf me'yori reja bahosida	Jami (3-2)	Shu jumladan:	
					Sarf me'yori ning o'zgarishi hisobiga (4-2)	Material bahosining o'zgarishi hisobiga (3- 4)
1	2	3	4	5	6	7
“A” tugallan magan ishlab chiqarish	46,34	52,76	47,56	+6,42	+1,22	+5,20
“B” tugallan magan ishlab chiqarish	4,58	4,45	4,31	-0,13	-0,27	-0,14
Jami	50,92	57,21	51,87	+6,29	+0,95	+5,34

Yuqoridagi 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, «A» tugallanmagan ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati rejaga nisbatan 6,29 so'mga ortgan. Shundan 5,34 so'mi materiallar bahosini ortishi evaziga, qolgan 0,95 so'mi esa sarf me'yoriga rioya qilmaslik tufayli yuz bergan. Materiallar bahosi navli po'lat bo'yicha 5,2 so'mga, po'lat trubalar bo'yicha 0,14 so'mga ortgan. Sarf me'yor i navli po'lat bo'yicha rejaga nisbatan ortgan holda po'lat trubalar bo'yicha iqtisod qilingan. Tahlil davomida har ikkala omilni rejaga nisbatan o'zgarish sababalari aniqlanadi.

Sarf me'yorining o'zgarishiga asosan quyidagilar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Dastgohlar texnik jihatdan nosozligi;
2. Xom ashyo sifati;
3. Ishchining malakasi.

¹⁵ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

Material bahosi o'zgarishiga quyidagi sabablar ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin:

1. Xom ashyo etkazuvchi bazalarni uzoq yoki yaqin joylashganligi;
2. Transport turlarini o'zgarishi;
3. Davlat tomonidan material narxini o'zgartirilishi.

Alohida tugallanmagan ishlab chiqarish turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lgan elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik bo'yicha hisobga olinishi va nazorat qilinishi korxonaning moliya - xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim hisoblanadi. Alohida olingan tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini aniqlashga hisob-kitoblarning muhim ob'ekti sifatida qaraladi. Bunda tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxining to'g'ri aniqlanishiga ahamiyat beriladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va hisobga olish, moliyaviy natijaviylikni tarkibli o'rganish bilan birga, foydaning shakllanish qatorlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Bir xildagi tugallanmagan ishlab chiqarish turlarini ishlab chiqaradigan korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini qiyosiy tahlili va uning natijalari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Alohida olingan tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxining tahlili xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha emas, balki, xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni, ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho berishni hamda o'zgarish sabablarini o'rganishni tavsiflaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarishning kalkulyatsiya moddalari ishlab chiqarish va texnologiya jarayonlari xususiyatiga bog'liq. Sanoat korxonalaridagi kalkulyatsiya moddalari tarkibini bir xil ko'rinishga ega bo'lishi tannarxni umumiy hajmda va moddlari bo'yicha tahlil etish imkoniyati tug'iladi. Bunday tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish birligiga belgilanadigan narxni aniqlashda foyda va rentabellikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni xarajat moddalarining har bir turi bo'yicha alohida tarkiblash

mumkin. Masalan, material xarajatlar yoki xom-ashyo xarajatlari qatori bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga moddiy sarflar me'yorining o'zgarishi, ularni sotib olish baholarining o'zgarishi ta'sir qilsa, mehnat haqi xarajatlarning o'zgarishida ishchilar soni va bir xodimga to'g'ri keladigan ish haqlarining o'zgarishi ta'sir qiladi. Amortizatsiya xarajatlari bo'yicha ham xuddi shu shaklda tarkiblashni aytib o'tish mumkin, ya'ni, amortizatsiyalangan qiymatning o'zgarishi, amortizatsiya me'yorlari, shuningdek, amortizatsiya ajratmalari ajratiladigan asosiy vositalar turi, slmog'iga bog'liq va hakovolar. Omillar ta'sirini aniqlashda har bir ta'sir birligi alohida va boshqa omillar ta'sirisiz o'rganiladi.

Alohida olingan tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxining tahlili xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha emas, balki, xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni, ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho berishni hamda o'zgarish sabablarini o'rganishni tavsiflaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish ning kalkulyatsiya moddalari ishlab chiqarish va texnologiya jarayonlari xususiyatiga bog'liq. Sanoat korxonalaridagi kalkulyatsiya moddalari tarkibini bir xil ko'rinishga ega bo'lishi tannarxni umumiy hajmda va moddlari bo'yicha tahlil etish imkoniyati tug'iladi. Bunday tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarish birligiga belgilanadigan narxni aniqlashda foyda va rentabellikni oshrishda muhim o'rin tutadi.

Moliyaviy tahlilning muhim qismi aylanma mablag'lardan samarali foydalanilganlikni o'rganishi egallaydi. Ayniqsa, tugallanmagan ishlab chiqarish harakatini o'rganish muhimdir.

Balans ma'lumotlariga qarab korxonaning tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarning moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatlilikini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi muhim ahamiyatga egadir.

«Qizilqumtsement» aksiyadorlik jamiyatida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga manbalar bilan ta'minlanganlik tahlili(ming so'm hisobida)¹⁶

№	Ko'rsatkichlar	2013 yil boshiga	2014 yil oxiriga	Farqi
1	2	3	4	5
1.	O'zlik mablag'larining manbalari	6198387	8535471	2337084
2.	Uzoq muddatli aktivlar	3044977	5521948	2476971
3.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga tegishli o'zlik manbalari (1-2)	3153410	3013523	-139887
4.	Uzoq muddatli kredit va qarzlar	571583	6408876	5837293
5.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	3724993	9422399	5697406
6.	Qisqa muddatli kredit va qarzlar	277895	287409	9514
7.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	4002888	9709808	5706920
8.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining jami	6696410	9458226	2761816
9.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-)	-3543000	-6444703	-2901703
10.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-)	-2971417	-35827	2935590
11.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga jami manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-) (7-8)	-2693522	251582	2945104

Yuqoridagi 6-jadvalda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik manbalarining etarliligini aniqlash uslubi keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, «Qizilqumtsement» aksiyadorlik jamiyatida 2003 yil boshida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik manbalari 3543 mln. so'mga etishmagan bo'lsa, yil oxirida bu ko'rsatkich 6444 mln.703 ming so'mga etishmagan. Yil oxiriga bu ko'rsatkichning etishmovchiligi 2935 mln.590 ming so'mga ko'paygan.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalarining etishmasligi yil oxirida 35 mln. 827 ming so'mni

¹⁶ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

tashkil etgan bo'lib yil boshiga nisbatan qoplash manbalari 2935 mln. 590 ming so'mga ko'paygan, ya'ni ijobiy siljish bo'lgan. Bunga yil boshiga nisbatan uzoq muddatli kreditlarning 5837 mln. 293 ming so'mga, qisqa muddatli kreditlarning esa 9 mln. 514 ming so'mga oshishi ijobiy ta'sir etgan. Ya'ni kreditlardan foydalanish darajasi oshgan.

Korxonada hisobot davri boshqa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash nobarqaror, ya'ni korxona tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariini faqatgina jami manbalari hisobiga qoplay olgan xolos. Korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga o'zlik manbalari 3543 mln. so'mga etishmagan. Jami manbalar hisobiga yil oxiriga kelgandagina tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini 251 mln. 582 ming so'm ortig'i bilan qoplash imkoniyati vujudga kelgan. Bu korxonaning moliyaviy barqarorlik holati bir qadar yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Biroq, ta'kidlash joizki, korxonalarni moliyaviy holati tahlil qilinganda, faqat bir muammo - tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishi bilan korxonalarni moliyaviy holati o'rtasidagi aloqa tahlil etiladi, chunki, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishini o'zgarishi korxonalar moliyaviy holatiga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari amaliyot shuni ko'rsatadiki, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishi susaygan vaziyatda ham korxona moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari ijobiy va aksincha, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishi tezlashgan bo'lsa, korxona moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari yomonlashgan bo'lishi mumkin. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarii aylanishining o'zgarishiga qandaydir katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim shart-sharoitlar, omillar ta'sir ko'rsatar ekan va bu vaziyatni moliyaviy tahlil paytida ko'ramiz.

Ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishi tezlatilsa, uning bir qismi tejaladi, qo'shimcha foyda barpo bo'ladi, undan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Aksincha, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishi sekinlashtirilsa, korxonaga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarii etmay qoladi va korxonada faoliyatni davom ettirish uchun

tashqi manbalardan (bank krediti va hokazo) foydalanib, korxona tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari to'ldirilishi kerak.

Shu sababli, korxonalarni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariining aylanishini o'zgarishi va uni korxonalarining moliyaviy holatiga ta'siri tahlil etiladi. Bu tahlil ikki yo'nalishda o'tkaziladi:

1. Umuman tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha.
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining alohida elementlari bo'yicha.

Umuman tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil etiladi:

1. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanish miqdori.
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini bir marta aylanishi uchun o'rtacha sarf qilingan kalendar kunlar.
3. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini birkitish ko'rsatkichi.
4. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tejalgan yoki to'ldirilgan summasi.

Ma'lumki, aylanma mablag'larning o'rtacha 70 foizi ishlab chiqarishda, 30 foizi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonida foydalaniladi. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishiga ishlab chiqarish tsiklining muhlati va mahsulotni sotish uchun sarf qilingan vaqt ta'sir ko'rsatadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanish miqdori sotilgan mahsulotlardan olingan tushumni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi. Lekin tushumdan qo'shilgan qiymatga solingan soliq bilan aktsiz solig'i olib tashlanadi, ya'ni:

$$\frac{\text{Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum}}{\text{Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining o'rtacha qiymati}}$$

Sotilgan mahsulotlardan olingan tushum «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»dan olinadi, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha qiymati buxgalteriya ma'lumotlariga asoslanib hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatida mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotishga sarf qilingan vaqtni o'zgarib turishi bilan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini har bir aylanishiga turlicha vaqt sarf qilinishi mumkin. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining umuman aylanish yo'nalishini ifodalash uchun yuqorida ko'rsatilgan ikkinchi ko'rsatkich aniqlanadi, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini bir marta aylanishi uchun sarf qilingan o'rtacha vaqt. Buning uchun tahlil qilinayotgan kalendar kunlarni soni birinchi ko'rsatkichga, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanish miqdoriga bo'linadi, ya'ni:

$$\frac{\text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar soni}}{\text{Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanish miqdori}}$$

Oxirgi paytda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishini tahlil qilishda yangi ko'rsatkichdan foydalanilyapti. Bu tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini birkatish ko'rsatkichi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini birkatish ko'rsatkichi yuqorida ko'rilgan birinchi ko'rsatkichni — tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanish miqdorini aksi bo'lib, bu ko'rsatkich tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini o'rtacha qiymatini sotilgan mahsulotlardan olingan tushumga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\frac{\text{Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanish miqdori}}{\text{Tahlil qilinayotgan kalendar kunlar soni}}$$

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini birkatish ko'rsatkichi sotilgan mahsulotlarning har bir sumiga nisbatan sarf qilingan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalaydi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishi tezlashtirilsa bu sarf kamayadi, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishi susaytirilsa, bu sarf oshib boradi.

**«Qizilqumtsement» aktsiyadorlik jamiyatida tugallanmagan ishlab chiqarish
xarajatlari aylanishining tahlili¹⁷**

№	Ko'rsatkichlar nomi	2003 yil boshi	2003 yil oxiri	Farqi (+;-)
1	2	3	4	5
1.	Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum	28743527	32193177	3449650
2.	Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining jami	6696410	9458226	2761816
3.	Aylanish koeffitsenti	4,3	3,4	-0,8
4.	Aylanish kuni	83,8	105,7	21,9
5.	Aylanish salmog'i koeffitsenti	0,2	0,3	0,06
6.	Aylanishning tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashligi yoki qo'shimcha jalb qilinishi a) kunda v) summada (32193177*21,9):360=1958147	x x	x x	21,9 1958147

Yuqoridagi 7–jadvalda «Qizilqumtsement» aktsiyadorlik jamiyatida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari aylanishining tahliliga doir jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonada zahira va xarajatlarning aylanish koeffitsenti yil boshiga nisbatan 0,8 ga kamaygan. Aylanish kuni esa yil boshiga nisbatan 21,9 kunga ko'paygan. Shu jumladan aylanish salmog'i koeffitsenti ham yil boshiga nisbatan 0,06 ga ko'paygan. Korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari aylanishining sekinlashishi natijasida jami 1958 mln.147 ming so'mga yaqin mablag'lar oborotga qo'shimcha jalb qilinishiga ehtiyoj paydo bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada yil oxirida yil boshiga nisbatan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanish darajasi yomonlashgan. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanuvchanligining pasayishiga asosiy sabab omborda tovar-moddiy zahiralar qoldig'ining ko'payib ketishi va sotish hajmining kamayishi hisoblanadi. Bu holatdan chiqish uchun marketing ishlarini samarali tashkil etish va moliyaviy salohiyatli sheriklar bilan iqtisodiy munosabatlar

¹⁷ Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

o'rnatish lozim. Shuningdek, bozorda talab yuqori bo'lgan tovarlar assortimentini ko'paytirish sotish hajmini oshirishda samarali yo'l bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishini ifodalab, bu aylanishni o'zgarishini korxonalarning moliyaviy holatiga ta'sirini hali ko'rsatmaydi, bu ko'rsatkichlar kerakli, qo'shimcha ko'rsatkichlar. bo'lib, ular yordamida eng asosiy - to'rtinchi ko'rsatkich aniqlanadi, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tejalgan yoki to'ldirilgan summasidir. Bu ko'rsatkich tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishini tezlashtirish natijasida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tejalish summasini yoki tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aylanishini susaytirish natijasida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini to'ldirish summasini ifodalaydi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishini o'zgarishini korxona moliyaviy holatiga ta'sirini chuqurroq tahlil etish uchun tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining alohida elementlarini aylanishini tahlil qilish lozim. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining alohida elementlarini aylanishiga korxonaning alohida bo'linmalarining -tsexlar, ombor xo'jaligi, marketint bo'limining faoliyati ta'sir ko'rsatadi. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining alohida elementlarini tahlil qilish, kelgusida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining aylanishini tezlashtirishga bag'ishlangan tavsiyalarni aniqlashtirishda korxona bo'linmalarining faoliyatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tahlili bo'yicha yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, texnologik jarayonda ko'zda tutilgan hamma ishlab chiqarish bosqichini o'tmagan, texnika nazorati tomonidan tekshirib qabul qilinmagan buyum va mahsulotlarga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish deb, 100%lik tayyor mahsulot darajasiga kelmagan, tayyor mahsulot tariqasida ko'rilmaydigan, bundan kelib chiqib, xaridorga sotib bo'lmaydigan mahsulot qismiga aytiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini va uni tayyor mahsulot darajasiga qanchalik yaqinligini aniqlash buxgalteriya hisobi uchun juda muhimdir. Bu turdagi ishlab chiqarish tarkibiga qayta ishlash jarayonidan o'tgan xom-ashyo, material va yarim tayyor mahsulotlar o'zi tayyor holga keltirilgan, ammo texnika nazorati bo'limi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotlar kiradi

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishdan maqsad - tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha hisob axborotlarini foydalanuvchilarga to'g'ri, to'liq, va o'z muddatida etkazib berishdan iboratdir.

Fikrimizcha, yuqoridagi maqsadga erishish hamda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

- korxonada tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini o'z vaqtida, to'g'ri, to'liq va aniq hisobga olish;
- mahsulot ishlab chiqarishda korxona asosiy va aylanma mablag'lardan unumli foydalanish yo'llarini topish;
- korxonalarda iqtisodiy tejash rejimiga rioya qilishni ta'minlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini tahlil qilish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida aks ettirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini moliyaviy hisobot shakllarida to'g'ri, to'liq va o'z muddatida umumlashtirish va baholash;

- tugallanmagan ishlab chiqarish birligining tannarxini aniq hisoblab borish va xarajatlarni pasaytirish yo'llarini aniqlash;

3. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tugallanishini ta'minlashda iqtisodiy tahlilning ahamiyati beqiyosdir. Korxonada tovar-moddiy zahiralardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarini tejash, tugallanmagan ishlab chiqarishni vujudga kelish sabablarini aniqlash va foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin. Buning uchun esa, tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi va unga sarflangan xarajatlar tahlilining o'tkazish ketma-ketligini har bir korxona o'zining tahlil o'tkazish maqsadidan kelib chiqib belgilashi kerak. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish tahlilida asosan tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi va ishlab chiqarish muddati, uni vujudga kelish sabablarini aniqlash, unga sarflangan xarajatlar tarkibi va ularni to'g'ri boshqarish hamda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajasda kamaytirishga e'tibor beriladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirishdan maqsad - tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini shakllanishi, miqdori, manbasi, paydo bo'lish davri va tugatilishi, xarajatlar tarkibi, tugallanmagan ishlab chiqarishning paydo bo'lish sabablari va xarajatlarni belgilangan me'yorlarga mosligi bo'yicha ko'rsatkichlarni baholash, ularni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil natijalari asosida tugallanmagan ishlab chiqarishni tayyor mahsulotga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan iboratdir.

4. Bizning fikrimizcha, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirishda quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor qaratish zarur:

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining miqdori, xarajatlar turkumi va tugallanmagan ishlab chiqarishni paydo bo'lish sabablarini o'rganish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini belgilangan xarajatlar (biznes-reja, xarajatlar smetasi hujjatlari) normativiga mosligini va me'yordan chetga chiqishlar sabablarini hamda ularga ta'sir etgan omillarni tahlili qilish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini jami korxona xarajatlari tarkibidagi salmog'i va nisbatini o'rganish hamda baholash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha muhim ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va ularning o'zgarishini omilli tahlil qilish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari aylanuvchanligini o'rganish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini gorizontaal va vertikal tahlilini amalga oshirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha tovar-moddiy zahiralarni etkazib berish borasida korxonalararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini baholash va uni kamaytirishda foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish va boshqalar.

Korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va soliqqa tortish hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjat - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» bo'lib hisoblanadi. Demak, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning asosiy yo'nalishi bu sub'ektning ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarni boshqarishdir.

5. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili uchun zarur ma'lumotlar korxona moddiy-texnika ta'minoti rejasi, xom ashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnoma hamda moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanishning statistik hisobotlaridan olinadi. Korxonalarda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlil etishda ularni sarflanishi bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy ma'lumotlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining ma'lumot manbalari sifatida dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahirolari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)», «Tayyor mahsulot» (170-satr), Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari ma'lumotlari hisoblanadi.

6. Tugallanmagan ishlab chiqarishni qanday va qaysi ko'rsatkichlar bilan tahlil qilish, eng avvalo, tahlilchining oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi. Agar tahlil tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u holda, tahlilchi tugallanmagan ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi, hajmi, ishlab chiqarish davri va muddati, uning shakllanish manbalarini va uni paydo bo'lish sabablarini tahlil qiladi. Agar tugallanmagan ishlab chiqarishga sarflangan materiallar samaradorligini bilmoqchi bo'lsa, u holda material sig'imi, material qaytimi ko'rsatkichlarini, material qiymatliklarning moliyaviy natijalarga ta'sirini o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini o'tkazish uchun tahlilchi xarajatlarni moliyaviy hisobot moddolari bilan qanday bog'liqligini bilishi kerak.

7. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili ma'lumotlari va ularni natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxona va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

8. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashning bir necha usuli mavjud. Bunday baholash texnologik jarayonning xususiyati va moddiy hamda ishlov xarajatlarining barcha ishlab chiqarish xarajatlaridagi salmog'iga bog'liq. Masalan, moddiy xarajatlar katta salmoqqa ega bo'lgan sanoat korxonalarida, jumladan, to'qimachilik sanoatida, tugallanmagan ishlab chiqarish faqat xom- ashyo va material qiymati bo'yicha baholanadi. Lekin yillik hisobot tuzilayotganda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymatiga ishlab chiqarish xarajatlarining summasi rejali summalarda qo'shiladi.

9. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash bo'yicha yuqorida keltirilgan hisoblardan ko'rinib turibdiki, asosiy ma'sad to'g'ri xarajatlarni aniqlashdan iborat. To'g'ri xarajatlar (materiallar, asosiy ish haqi) har bir kalkulyatsiya ob'ekti (buyum, detal va sh.k.) bo'yicha amaldagi normalarga asosan hisoblab topiladi. O'lgan xarajatlar to'g'ri xarajatlarga nisbatan foiz hisobida topiladi:

- transport – tayyorlov xarajatlari va o'aytariladigan chio'indilar materiallarning normativ qiymatiga nisbatan;

- normativ kalkulyatsiyasida belgilangan foiz hisobidagi ishlab chiqarish ishchilarning o'o'shimcha haqlari – norma bo'yicha asosiy ish haqiga nisbatan;

- ijtimoiy sug'urtaga ajratma – norma bo'yicha asosiy va o'o'shimcha ish haqlariga nisbatan;

- mashina va uskunalarni asrash va ulardan foydalanish xarajatlari – uskunalar bir soatlik ishining smeta stavka (xarajat)lari va uskunalarining sarflangan normalashtirilgan ish vaqti miqdori bo'yicha, lekin keyinchalik ularni norma bo'yicha asosiy ish haqi summasiga nisbatan hisoblash yo'li bilan;

- umumishlab chiqarish xarajatlari – norma bo'yicha ikkita ko'rsatkich summasiga nisbatan (ish haqi va mashina va uskunalarini asrash va ulardan foydalanish xarajatlari).

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni baholashning soddalashtirilgan usuli ham o'o'llaniladi: ish haqi summasini operatsiyalar bo'yicha hisoblamasdan, oldingi sex bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarishlar turgan sexning o'rtacha 50% to'liq ish haqisini oladi.

10. Fikrimizcha, amaliyotda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir:

- Tahlilning rejasi va dasturini tuzish bosqichi. Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi.

- Tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish va hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.

- To'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi. To'plangan manbalarni to'g'riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbaalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bevosita xo'jalik sub'ektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil

ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi.

- Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi. Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1.1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2002.

1.2.O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: «Adolat », 2008 y.-692 b.

1.3.O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.

1.4.O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. (Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR. 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR. 04.04.2006 y. O'RQ-28-son Qonuni, O'zR 10.10.2006y. O'RQ-59-son Qonuni, O'zR. 17.09.2007y. O'RQ-110-son Qonuni, O'zR. 09.09.2009y. O'RQ-216-son Qonuni asosida)

1.5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son Qaroriga 2-ilova «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida» Nizom.

1.6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom.

1.7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qarori - «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida».

1.8. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir –T. O'zbekiston. 2015.

1.9. Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" T.: "O'zbekiston", 18 yanvar 2013 yil.

1.10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. -T.: «O’zbekiston», 2013 yil 19 yanvar.

II. Asosiy adabiyotlar

2.1. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibroximov A.T. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”. Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013. -600 b.

2.2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. № 0-23. T.: - 1998-2002 yil.

2.3.O. Bobojonov «Moliyaviy hisob». – T.: «Sharq» NMAK, 2000 yil. 476 b.

A. Abdullaev «Moliyaviy hisob».– T.: «Fan va texnologiya», 2005 yil. 286 b.

2.4. I. Ochilov «Moliyaviy hisob».–T.: «Iqtisod va moliya», 2006 yil. 396 b.

2.5. A.Vahobov, A. Ibragimov «Moliyaviy tahlil».–T.:«Sharq» NMAK, 2002

Yu.Itkin, A.S.Sotiboldiev «Zamonaviy buxgalteriya hisobi».T.:2002

2.6. M.M.To’laxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshqalar. Audit. Darslik. 1 va 2 jildlar. -Toshkent:. NORMA. 2008.

2.7. Auditorlik faoliyati buyicha uslubiy qo’llanmalar to’plami./ X.Qosimov, L.Yugay, A.Xoshimova, B.Pardaev, B.Abdunazarov.-Toshkent, 2010.-320 b.

2.8. Do’smuratov R.D. Audit. O’quv qo’llanma (I qism). R.D. Do’smuratov, Sh. Fayziyev. - T.: "iqtisod-moliya", 2008. - 178 b.

2.9. Do’smuratov R.D. Audit. O’quv qo’llanma. (II qism)./ R.D. Do’smuratov, Sh. Fayziyev. - T.: "iqtisod-moliya", 2008. - 256 b.

2.10. Karimov A. va boshq. Audit. O’quv-uslubiy qo’llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2008. – 180 b.

2.11. Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik – Toshkent: Sharq NMAK, 2004. – 592 b.

2.12. Shog’iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya” 2012. – 278 b.

2.13. Do’stmuratov R.D. Audit asoslari. – T.: O’zbekistan milliy entsiklopediyasi. 2003. – 612 b.

III. Internet saytlari:

<http://mf.uz>

<http://www.soliq.uz>

www.ziyonet.uz

www.tfi.uz

www.lex.uz

www.gaap.ru

www.accountingreforms.ru